

Maqol haqida tushuncha
Sherjanova Sevara Qahramanovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti, ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada maqollarning shakllanish tarixi, mohiyat va xususiyatlari haqida so'z borgan. Shuningdek maqollarning xalqimiz madaniyatida tutgan o'rni ayrim maqollar misolida tahlil qilingan. Boshqa millat maqollarining tarjima qilinishi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, qavlun, tarjima, Fol'klor janr, "Tarjima san'ati", do'stlik, matallar, iboralar, xalq o'yinlari..

Maqollar bizning nutqimizga qadimdan kiritilagan, ammo ularning kelib chiqishi haqida kam odam o'ylaydi. Chunki u davrlarda barqaror frazeologik birliklar mavjud emas edi. Shunda bo'sada maqollar yangi muloqot madaniyatining shakllanishiga yordam berdi. Qadimi dostonlarimizda keltirib o'tilgan maqollar bugungi kunda ham o'zing ahamiyatli yuqotmasdan xalqimiz so'zlashuviga, adabiyotida, bir so'z bilan aytganda fikrni qisqa, lo'nda qilib ifodalash uchun ishlatilib kelinmoqda. "Maqol" atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. Maqol janrining o'rganilish tarixi Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. O'zining "Devonu lug'ati turk" asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o'rinni olgan, undan tashqari so'z mulkinining sulton Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin. Maqollar so'z boshi o'rnida ishlatilgan hikoyalarni ham ko'plab uchratamiz. Adib Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida epigrafida sifatida "Otning o'limi – itning bayrami" maqoli keltirilgan. Bu adibning mahorati bilan bir qatorda, hikoyaning mazmun-mohiyatini bir maqolda ochib bergandek ko'rindi. Maqol bu – gapning qaymogidir. Qaysi xalq yoki millat tomonidan yaratilmasin, u mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, boshqa davlat aholisi ham foydalaniishlari mumkin. Ammo Maqollarni tarjima qilish tarjimonlari uchun talaygina muammolarni keltirib chiqaradi. Sabab sifatida shuni keltirib otish mumkinki, tarjimon o'z sohasidan tashqari tarix, falsafa va boshqa fan sohalaridan ham xabardor bolishi talab etiladi. Bu haqida G'aybulloh Salomov "Tarjimonda yozuvchi va tanqidchidan, aktiyor, rassom va olim mehnatidan ham nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon sozshunos bo'lib tahlil qiladi, aktiyor singari boshqalarning (shu orinda- muallifning) qiyofasiga kiradi va ayni vaqtida ozligini

saqlaydi.....” [4] deya takidlagan edi ozining “Tarjima tashvishlari” kitobida. Demak maqollarning tarjimasi bilan shugullanish ham tarjimondan katta mas“uliyatni va tajribani talab qiladi. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. Maqol arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, aytib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo‘llaniladi. Maqol og‘zaki ijodimizda qo‘llaniladigan eng kichik janrlardan biri hisoblanadi. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. Maqollar hajm jihatdan qisqa bo‘lsada, ularda fikr va mazmun keng qamrovli bo‘ladi. Dunyoda o‘z maqollariga ega bo‘lmagan xalqning o‘zi yuq. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga meros qilib qoldiradilar. Xalq maqollari tarixi o‘nlab asrlar bilan o‘lchanadi. O‘rxun - Enasoy bitiklarida “Oriq va semiz (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi”. “Yupqa qalin bo‘lsa tor - mor qiladigan bahodir emish, Ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish” kabi maqollarni eslatuvchi parchalarni o‘qiyimiz. Maqol janrining o‘rganilish tarixi Mahmud Koshg’ariyga borib taqaladi. O‘zining (“Devonu lug‘ati turk” asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o‘rin olgan, Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan maqollarning bir qanchasi hozir, ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan: MaqolKoshg’ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabi. Bundan tashqari so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Maqollar so‘z boshi o‘rnida ishlatilgan hikoyalarni ham ko‘plab uchratamiz. Adib Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida epigrafida sifatida “Otning o‘limi - itning bayrami” maqoli keltirilgan. Bu adibning mahorati bilan bir qatorda, hikoyaning mazmun - mohiyatini bir maqolda ochib bergandek ko‘rinadi. Maqol— Bu xalqning ibratli hikmatini o‘zida mujassam etgan qisqa gap. Maqolda to‘liq fikr mavjud. Matal— muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Maqol va matallarning umumiy xususiyatlariga qisqalik, barqarorlik, keng foydalanish kiradi. Ikkala, maqol va matalni she’riy, ko‘p ma’noda, nutqda keng qo‘llaniladigan, aytishning majoziy ma’nolariga ega barqaror qisqa iboralar deb ta’riflash mumkin. Maqol va matallarda turli xil badiiy va grafik vositalar va uslublar qo‘llaniladi: taqqoslash (“birovning ruhi qorong‘i o‘rmonga o‘xshaydi”), metafora, personifikatsiyalar (“xop shovqin soladi - aql jim”, “g‘ildirakka nutq qo‘y”), antiteziyalar, ya’ni oppozitsiyalar (“ta’limotning ildizi achchiq, ammo mevasi shirin”), giperbola (“teringizdan chiqib ketish”, “uchta qarag‘ayda adashish”). Maqollarda badiiy vosita ham mavjud - tavtologiya 6 (“ular yaxshilikdan yaxshilik izlamaydilar”, “ular qulog‘idan eshitmaganlar, ko‘rganlari

bilan ko'rmaganlar"). O'zbek tilining izohli lug'atida matal so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Matal (1. Tugal ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z (qizil qor yoqqanda, tuyaning dumni yerga tekkanda). 2. Qissa, masal Qulmurodning mataldek bo'lib eshitilayotgan dard-alamli hikoyasi ostida Shokir qachonlar uyqu daryosida g'arq bo'lган edi. (S.Ayniy, Qullar) O.Madayev fikriga ko'ra, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr bo'lib, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi. Quyidagilarni matalga misol qilib keltiradi: Alifni kaltak deydi. Attorning qutisida ham yo'q gaplar. Betga chopdi. Bilsa hazil, bilmasa chin. Bor otangga, bor onangga. Igna tashlasang, yerga tushmaydi. Shuningdek, maqol kabi matal ham xalq og'zaki ijodida donolik, so'zamollik namunasi bo'lib, aksar hollarda maqol bilan birga ifodalanadi yoki adashtiriladi. So'z boyligi yaxshi bo'lган kishilar matallardan o'z o'rnida foydalanib, tinglovchini o'zlariga jalg qila oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mo'minjon Sulaymonov "O'zbek xalq og'zaki ijodi" - "Namangan" nashriyoti 2012-yil.
2. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov "O'zbek folklori" - Toshkent "Tafakkur bo'stoni" 2020.
3. Omonulla MADAYEV "O'zbek xalq og'zaki ijodi" - Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2010.
4. Sh.Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov "Ma'nolar maxzani" - T.,2001.
5. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B.Sarimsoqov "O'zbek xalq maqollari" - T, "Sharq", 2005.
6. Internet. Maqollarning o'z va ko'chma ma'nolari, maqollar tahlili. Maqol va matallar.Dars "CNT
7. Zarina Olqarova "Maqol va matallarning o'zaro farqli jihatlari" 8. Surayyo Bozor qizi Hamrayeva "Maqollar mohiyati va xususiyatlari"